

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 238 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJIRIBALARI	78
Haqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Mahammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'aniybekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamatovna	
YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarsul o'g'li	



MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiq qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIHATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	233
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	



PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR

Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: hamidullaad@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda paxta-to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish zarurati, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar tahlil qilinadi. Unda sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport geografiyasini kengaytirish, jahon bozorida o'zbek to'qimachilik mahsulotlari salohiyatini oshirish bilan bog'liq strategik yo'nalishlar yoritilgan. Maqolada sohadagi islohotlar samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: paxta-to'qimachilik sanoati, qayta ishlash, klaster tizimi, eksport salohiyati, tayyor mahsulot, innovatsiya, raqobatbardoshlik, xalqaro standartlar, sertifikatsiya tizimi, texnologik modernizatsiya, kichik biznes, qo'shilgan qiymat, ishlab chiqarish zanjiri, barqaror rivojlanish, mehnat unumdorligi, xorijiy tajriba, iqtisodiy xavfsizlik, ekologik tozalikka asoslangan ishlab chiqarish, investitsion muhit, kadrlar salohiyati.

Abstract. This article analyzes the necessity of modernizing the cotton-textile industry in Uzbekistan, identifies existing challenges, and presents scientifically grounded proposals for their solution. Particular attention is given to the introduction of modern technologies, enhancement of production efficiency, and ensuring product quality and competitiveness.

Furthermore, the paper highlights strategic directions related to attracting foreign investment, expanding export geography, and strengthening the position of Uzbek textile products in the global market. The article presents scientific conclusions, proposals, and recommendations aimed at improving the effectiveness of sectoral reforms.

Key words: cotton-textile industry, processing, cluster system, export potential, finished product, innovation, competitiveness, international standards, certification system, technological modernization, small business, added value, production chain, sustainable development, labor productivity, foreign experience, economic security, environmentally friendly production, investment climate, human capital.

Аннотация. В данной статье анализируется необходимость модернизации хлопково-текстильной промышленности Узбекистана, существующие проблемы в отрасли и научно обоснованные предложения по их решению. Особое внимание уделено внедрению современных технологий, повышению эффективности производства, обеспечению качества и конкурентоспособности продукции.

Также освещены стратегические направления, связанные с привлечением иностранных инвестиций, расширением географии экспорта и повышением потенциала узбекской текстильной продукции на мировом рынке. В статье представлены научные выводы, предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности проводимых реформ в данной сфере.

Ключевые слова: хлопково-текстильная промышленность, переработка, кластерная система, экспортный потенциал, готовая продукция, инновации, конкурентоспособность, международные стандарты, система сертификации, технологическая модернизация, малый бизнес, добавленная стоимость, производственная цепочка, устойчивое развитие, производительность труда, зарубежный опыт, экономическая безопасность, экологически чистое производство, инвестиционный климат, кадровый потенциал.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblangan paxta-to'qimachilik sanoati mamlakatning eksport salohiyati, aholi bandligi va valyuta tushumlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mamlakatda har yili o'rtacha 1 million tonnaga yaqin paxta xomashyosi yetishtiriladi va bu



ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyoning eng yirik olti paxta ishlab chiqaruvchi davlatlari qatoridan munosib o'rin egallaydi.

So'nggi yillarda sohaga oid siyosiy, iqtisodiy va institutsional islohotlar — xususan, klaster tizimining joriy etilishi, paxtachilikni davlat buyurtmasidan chiqarish, shuningdek, xomashyoni to'liq ichki qayta ishlash tizimini shakllantirish — paxta-to'qimachilik sanoatining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qildi. 2023-yil holatiga ko'ra, mamlakatda paxta xomashyosining 100 foizi ichki qayta ishlanmoqda, bu esa O'zbekistonni xomashyo eksport qiluvchi emas, balki tayyor mahsulot eksportiga yo'naltirilgan raqobatbardosh davlat sifatida mustahkamlash imkonini bermoqda.

Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Namangan, Farg'ona, Andijon, Toshkent, Buxoro va Sirdaryo viloyatlari paxtani qayta ishlash hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarishda yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Ayniqsa, Namangan viloyatidagi to'qimachilik korxonalari mato, trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda, shuningdek eksport salohiyatini oshirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

Sohada erishilgan natijalarga qaramay, ayrim rivojlantirishni talab etuvchi yo'nalishlar ham mavjud:

- Qayta ishlash chuqurligini yanada oshirish va mahsulotlarni to'liq tayyor holatda eksport qilish tizimini kengaytirish;
- Energetika va logistika infratuzilmasini takomillashtirish, ayniqsa hududlardagi kichik va o'rta korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- Texnologik asbob-uskunalarni zamonaviylashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- Kadrlar salohiyatini rivojlantirish, texnik va menejment sohasida malaka oshirish tizimini kuchaytirish;
- Mahalliy va xalqaro sertifikatlash tizimini kengaytirish orqali jahon bozoriga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston 2025-yilga qadar to'qimachilik mahsulotlari eksportini 3,5 milliard AQSh dollariga, 2027-yilga borib esa 7 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilgan. Ushbu strategik maqsadlar — tayyor mahsulot ulushini oshirish, Yevropa Ittifoqi kabi talabchan bozorlarga kirish, hamda barqaror ishlab chiqarish standartlarini joriy etish orqali amalga oshirilmoqda.

Quyidagi jadvalda paxta-to'qimachilik sanoatining so'nggi yillardagi o'sish dinamikasi keltirilgan (1-jadval):

1-jadval. Paxta-to'qimachilik sanoati ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari (2021–2025-yillar)

№	Yil	Paxta xomashyosi (ming t)	Ichki qayta ishlash (%)	Eksport (mlrd \$)	Tayyor mahsulot ulushi Tayyor mahsulot ulushi (%)
1.	2021	900	75	2.1	25
2.	2022	980	85	2.5	35
3.	2023	1020	100	2.7	45
4.	2024	1050	100	2.9	55
5.	2025(1-chorak)	260	100	0.629	60

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston paxta-to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish masalasi bo'yicha so'nggi yillarda bir qator ilmiy tadqiqotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda davlat strategik hujjatlarida keng yoritilgan. Ushbu adabiyotlar sohaga oid iqtisodiy islohotlar, klaster tizimining samaradorligi, eksport salohiyatini oshirish, hamda raqamli va ekologik transformatsiya jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4096-son¹ (2019-yil 6-yanvar) va PQ-4933-son² (2021-yil 1-fevral) qarorlari paxta-to'qimachilik klasterlarini shakllantirish hamda tarmoqda ishlab chiqarish zanjirini to'liq integratsiyalash yo'lida muhim huquqiy asos bo'ldi. Bu hujjatlar tarmoqda klaster tizimi joriy etilishi, ishlab chiqarish samaradorligi va eksport ulushining oshirilishini belgilab berdi.

Jo'rayev A. va To'xtayeva D. (2023) o'z tadqiqotlarida paxta-to'qimachilik klasterlarida innovatsion boshqaruv tizimlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tahlil qilib, klasterlar o'rtasida texnologik hamkorlikni kuchaytirish zarurligini asoslab bergan. Karimov S. (2022) esa tarmoqni modernizatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda investitsion siyosat va infratuzilma modernizatsiyasining o'zni muhimligini ta'kidlaydi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.01.2019 yildagi PQ-4096-son <https://lex.uz/uz/docs/-4141425?ONDATE=23.08.2025>
2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 22.12.2020 yildagi PQ-4933-son <https://lex.uz/ru/docs/-5177524>



Xalqaro miqyosda World Bank (2023) va Asian Development Bank (2022) hisobotlarida O'zbekiston paxta-to'qimachilik tarmog'ida amalga oshirilgan transformatsiyalar yuqori baholanib, ishlab chiqarishning vertikal integratsiyasi, raqamli boshqaruv tizimlari va "yashil" ishlab chiqarish modellari tahlil qilingan. Ayniqsa, Better Cotton Initiative (2024) tomonidan ishlab chiqilgan barqarorlik standartlari O'zbekistonning xalqaro sertifikatlash tizimiga moslashishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, UNIDO (2023) va OECD (2022) tadqiqotlarida to'qimachilik tarmog'ini ekologik va innovatsion yo'nalishda rivojlantirish, energiya tejamlar texnologiyalarni keng joriy etish va barqaror ishlab chiqarish modeliga o'tish zaruriyati alohida ta'kidlangan. Rasulova N. (2021) va Hasanov B. (2023) kabi mahalliy olimlarning ishlanmalari esa klaster tizimining eksport salohiyatini oshirishdagi rolini, xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarishning raqobatbardoshlikka ta'sirini o'rganadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2024) tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbekiston to'qimachilik sanoatini rivojlantirish strategiyasi (2024–2030-yillar)" hamda Statistika agentligi (2024) ma'lumotlarida tarmoqda ichki qayta ishlash hajmining 100 foizga yetkazilgani, eksport hajmlarining yildan-yilga oshayotgani va klaster tizimining samarali ishlayotgani qayd etilgan.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, paxta-to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari — bu texnologik yangilanish, klaster tizimining takomillashtirilishi, eksportni diversifikatsiya qilish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda "yashil" ishlab chiqarish konsepsiyasiga o'tishdan iborat. Ushbu manbalar sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ayni maqolada paxta-to'qimachilik sanoatini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish zarurati, mavjud holatni tahlil etish hamda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish masalalari yoritiladi. Unda, shuningdek, klaster tizimi samaradorligini oshirish, xorijiy tajriba va innovatsion yondashuvlar asosida ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini mustahkamlash yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Maqolaning asosiy maqsadi — paxta-to'qimachilik tarmog'ining barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash hamda milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlashga ilmiy asos yaratishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston paxta-to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish yo'lida so'nggi yillarda sezilarli natijalarga erishdi. Shu bilan birga, tarmoqning yanada rivojlanishi uchun tizimli yondashuvni takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Avvalo, ishlab chiqarishning barcha bosqichlari — xomashyo yetishtirishdan tortib tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonlarni chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda mahsulotlarning ma'lum qismi hali ham yarim tayyor holatda eksport qilinayotgan bo'lsa-da, qayta ishlash zanjirining to'liq shakllanishi iqtisodiyot uchun katta qo'shilgan qiymat, yangi ish o'rinlari, innovatsion dizayn va milliy brend yaratish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, klaster tizimining joriy etilishi sanoatda sezilarli ijobiy natijalar bermoqda. Bugungi kunda klasterlar o'rtasida tajriba almashinuvi, innovatsion yondashuvlarni kengaytirish va resurslarni samarali taqsimlash bo'yicha chora-tadbirlar kuchaymoqda. Ayrim hududlarda infratuzilma va moliyaviy mexanizmlarni yanada takomillashtirish orqali klasterlar faoliyati samaradorligi oshirilmoqda. Bu esa tarmoqni hududlar kesimida muvozanatli va barqaror rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Bundan tashqari, xorijiy bozorlar bilan hamkorlikni kengaytirish, xalqaro sertifikatlash tizimini takomillashtirish, hamda ekologik va ijtimoiy barqarorlik talablariga to'liq javob beradigan ishlab chiqarish tizimini shakllantirish bugungi kunning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu maqsadda "Better Cotton Initiative (BCI)" kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlantirish O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarining global bozordagi raqobatbardoshligini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yevropa Ittifoqi va AQSh kabi bozorlarda mahsulotlarga nisbatan ekologik tozalik, sifat va ijtimoiy mas'uliyat mezonlariga yuqori talab qo'yiladi. Shu sababli, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xalqaro ekologik standartlarga to'liq mos kelishi, sertifikatlash tizimini kengaytirish va barqaror ishlab chiqarish mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Yana bir muhim jihat — malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishdir. So'nggi yillarda mamlakatda kasb-hunar ta'limini modernizatsiya qilish, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va zamonaviy



texnologiyalarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha muhim qadamlar tashlandi. Hozirda ko'plab korxonalarda avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari faol ishlamoqda va ularni malakali mutaxassislar tomonidan boshqarish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa sanoatning innovatsion salohiyatini yanada oshirish imkonini bermiqda.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, muvaffaqiyatli paxta-to'qimachilik sanoatini rivojlantirishda uchta asosiy omil — innovatsiyalar, marketing va xalqaro integratsiya — hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, Turkiya, Bangladesh va Vetnam kabi davlatlarda kichik ishlab chiqaruvchi korxonalar yirik brendlar bilan kooperatsiya asosida faoliyat yuritib, eksport hajmini yildan-yilga izchil oshirib bormoqda. Ushbu mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat siyosatida innovatsion rivojlanish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali tarmoqning raqobatbardoshligi yuqori darajada ta'minlanmoqda.

O'zbekistonda ham bu yo'nalishda xususiy sektorni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish, hamda ichki bozorni raqobatbardosh qilish muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan imtiyozli kredit siyosati, eksportni rag'batlantirish dasturlari va sanoat klasterlarini rivojlantirish choralari bu boradagi ijobiy natijalarga erishishga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, mavjud tabiiy resurslar, qulay geoiqtisodiy joylashuv va xalqaro bozorga chiqishdagi barqaror ijobiy siljishlar O'zbekiston paxta-to'qimachilik sanoatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish uchun mustahkam asos yaratmoqda. Shu bilan birga, modernizatsiya strategiyalarini kompleks yondashuv asosida shakllantirish, klasterlar o'rtasida barqaror kooperatsiyani yo'lga qo'yish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish sohaning raqobatbardoshligini yanada kuchaytiradi.

O'zbekiston paxta-to'qimachilik sanoatida so'nggi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida bir qator barqaror va ijobiy yutuqlarga erishildi. Quyida ularning eng muhim yo'nalishlari tahlil qilinadi:

1. Ichki qayta ishlash darajasining 100 foizga yetkazilishi.

2023-yil holatiga ko'ra, mamlakatda yetishtirilgan paxta xomashyosi to'liq ichki bozorda qayta ishlanmoqda. Bu yutuq qo'shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va milliy ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash imkonini berdi.

2. Eksport hajmlari va tayyor mahsulot ulushining ortishi.

So'nggi uch yil ichida to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2,1 milliard AQSh dollaridan 2,9 milliard dollargacha oshdi. Shu bilan birga, eksportdagi tayyor mahsulotlar ulushi 25 foizdan 55 foizgacha ko'tarildi. Bu o'zgarish O'zbekistonning xomashyo eksportchisi maqomidan tayyor mahsulot eksportchisiga aylanish jarayonini tezlashtirdi.

3. Klaster tizimining samaradorligi.

Paxta yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni yagona ishlab chiqarish zanjiriga birlashtiruvchi klaster tizimi o'zini to'liq oqladi. Natijada mahsuldorlik oshdi, iqtisodiy samaradorlik ta'minlandi, hamda fermerlar va ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida barqaror hamkorlik mexanizmlari shakllandi.

4. Xorijiy tajriba asosida modernizatsiya jarayonining boshlanishi.

Turkiya, Bangladesh va Xitoy kabi ilg'or to'qimachilik davlatlarining tajribalari o'rganilib, ular asosida texnologik yangilanishlar amalga oshirildi. Zamonaviy ishlab chiqarish uskunolari joriy etildi, jarayonlarda avtomatlashtirish va raqamlashtirish darajasi oshirildi. Bu esa tarmoqning texnik va innovatsion salohiyatini sezilarli darajada mustahkamladi.

5. Bandlik va ijtimoiy barqarorlikning oshishi.

Tarmoqdagi islohotlar natijasida minglab yangi ish o'rinlari yaratildi. Ayniqsa, qishloq joylarda ayollar va yoshlar bandligi ta'minlanib, ularning iqtisodiy faolligi oshdi. Bu holat ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, aholi daromadlarini oshirish va hududiy tenglikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

6. Sertifikatsiya va xalqaro eksport standartlarini joriy etish.

GSP+ tizimi doirasida Yevropa Ittifoqi bozorlariga chiqish uchun zarur bo'lgan xalqaro ekologik va mehnat standartlariga moslashtirish jarayonlari boshlangan. Bu yo'nalish eksport geografiyasini kengaytirish, mahsulotlarni xalqaro bozorlarda tan olinishini ta'minlash uchun muhim zamin yaratmoqda.

7. Ilmiy yondashuv asosida rivojlanish strategiyalarini shakllantirish.

Mavjud muammolar tahlili va xorijiy tajribalar tahliliga asoslanib, ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijada, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, kadrlar tayyorlashga sarmoya kiritish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish tarmoqni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning paxta-to'qimachilik sanoati so'nggi yillarda amalga oshirilgan modernizatsiya va islohotlar natijasida jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biriga aylandi. Paxta xomashyosining to'liq ichki qayta ishlanishi, klaster tizimining samarali joriy etilishi, tayyor mahsulotlar ulushining ortib borayotgani va eksport hajmlarining



yildan-yilga o'sishi ushbu sohada to'g'ri strategik yondashuvlar amalga oshirilayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, tarmoqda yanada takomillashtirilishi lozim bo'lgan ayrim yo'nalishlar ham mavjud bo'lib, texnologik asbob-uskunalarini yangilash, xalqaro talablar darajasida sertifikatlash tizimini rivojlantirish, kadrlar malakasini oshirish va ilmiy yondashuvni kuchaytirish orqali sohaning raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash mumkin. Mahalliy sanoatni chuqur modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni keng jalb etish va raqamli yechimlarni joriy etish mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. To'liq qayta ishlovchi klasterlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, hududlar o'rtasida tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish va ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish zarur. Xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish va sertifikatlash tizimini takomillashtirish tarmoqning eksport salohiyatini kengaytiradi hamda O'zbekiston mahsulotlarining Yevropa Ittifoqi, AQSH va Osiyo bozorlarida raqobatbardoshligini oshiradi. Kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion loyihalarni rivojlantirish sohaning barqaror rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi, shu bois kasb-hunar ta'limi tizimini ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish va ilmiy-amaliy markazlar faoliyatini kengaytirish zarur. "Yashil texnologiyalar" va barqaror ishlab chiqarish tamoyillarini joriy etish ekologik jihatdan xavfsiz, energiya tejamkor va ijtimoiy mas'uliyatli ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi, bu yo'nalish "Yashil iqtisodiyot – 2030" konsepsiyasi bilan uyg'un holda amalga oshirilishi lozim. Xulosa qilib aytganda, paxta-to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish bo'yicha ilgari surilgan ilmiy asoslangan takliflar va strategik yo'nalishlar sohada innovatsion yondashuvni kuchaytirish, milliy mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash hamda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarori, PQ-4096-son, 2019-yil 6-yanvar. <https://lex.uz/uz/docs/-4141425>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ-4933-son, 2021-yil 1-fevral. <https://lex.uz/uz/docs/3098864?ONDATE=30.12.2021>
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston to'qimachilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha 2024–2030-yillarga mo'ljallangan strategiya loyihasi. Toshkent, 2024-yil.
4. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi ma'lumotlari. To'qimachilik mahsulotlari eksporti bo'yicha 2023-yil yakunlari. Toshkent, 2024-yil.
5. Jo'rayev, A. & To'xtayeva, D. (2023). Paxta-to'qimachilik klasterlarida innovatsion boshqaruv tizimlari. Iqtisod va innovatsiyalar jurnali, №4, 45–56-betlar.
6. Karimov, S. (2022). O'zbekiston to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmlari. Toshkent: TDIU nashriyoti.
7. World Bank. (2023). Uzbekistan Cotton Sector Transformation: Achievements and Future Outlook. Washington, D.C.
8. Better Cotton Initiative (BCI). (2024). Sustainability Standards and Implementation in Central Asia Cotton Industry. Geneva.
9. Asian Development Bank. (2022). Textile Industry Modernization and Value Chain Development in Uzbekistan. Manila.
10. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). (2023). Sustainable Textile Production and Green Technologies in Developing Countries. Vienna.
11. Rasulova, N. (2021). Eksport salohiyatini oshirishda klaster tizimining o'rni. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, №2, 30–38-betlar.
12. Hasanov, B. (2023). O'zbekiston to'qimachilik tarmog'ining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish yo'llari. TDIU Ilmiy axborotnomasi, №5, 72–80-betlar.
13. OECD. (2022). Textiles and Clothing in Central Asia: Trade, Innovation, and Sustainability. Paris.
14. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari to'plami. Toshkent.
15. Xodjayev, I. (2024). "Yashil" texnologiyalarni paxta-to'qimachilik sohasida qo'llash istiqbollari. Innovatsion iqtisodiyot jurnali, №3, 59–66-betlar.
16. Qayumov, B. Z. (2025). O'smirlarda kreativlik namoyon bo'lishining hududiy tafovutlari. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(6).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>